



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Наргиза Музафаровна Бабаева Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
Maksuda Valeriyevna Israilova Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
Dilshod Usmanovich Ruzmanov Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
Фарход Абдивахидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
Parvina Asliddin qizi Xolmatova Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
Xasan Ibragimovich Turdibekov O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
Aziza Yusufbekovna Talibova O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
Нодир Нозимович Негматов Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
Gulshan Akmalovna Abduvohidova Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

основу для превращения Узбекистана в одну из ведущих туристических дестинаций Центральной Азии. Однако для достижения полного потенциала необходимо решать существующие проблемы и продолжать инвестировать в инфраструктуру и человеческий капитал.

Список использованной литературы:

1. Государственный комитет по развитию туризма Республики Узбекистан. Отчеты 2022-2023 гг.
2. Всемирная туристская организация (UNWTO). Отчеты и статистика по Центральной Азии.
3. Каримов А.Ш. «Экономическое развитие и туризм: пути взаимодействия». – Самарканд, 2022.
4. Л.М. Хасанов. (2019). Развитие туризма в Узбекистане: Экономическое значение и перспективы. Монография.
5. М.Р. Абдуллаев. (2020). Туризм как драйвер экономической диверсификации: Применение опыта Узбекистана. - Диссертация.
6. Н.З. Курбанова. (2021). Социальные аспекты развития туризма в Узбекистане. - Учебное пособие.
7. М.Х. Яркиева. (2022). Туризм в Узбекистане: Проблемы и перспективы развития. - Статья в научном журнале.
8. Т. Браун, Д. Миллер. (2019). Устойчивый туризм как фактор социально-экономического развития. - Статья в международном научном журнале.

<p style="text-align: center;">G.Shadiyeva, B.Davronova</p> <p style="text-align: center;">O‘zbekistonda turizm: iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatida</p> <p>Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida turizm sanoatini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy o‘shishga ta’sirini o‘rganadi. O‘zbekiston turizmi, mamlakatning barqaror rivojlanishiga va iqtisodiy diversifikatsiya jarayo-niga alohida hissa qo‘shmoqda. Ushbu tadqiqotda turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar va yangi infratuzilma loyihalarining turizm sektoriga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, turizm sohasida amalga oshirilgan davlat dasturlari, investitsiyalar va yangi turistik yo‘nalishlar yaratish haqida ma’lumotlar taqdim etiladi. Maqola, turizmni rivojlantirishning mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘shishiga, ish o‘rinlari yaratishga va aholi turmush darajasini yaxshilashga qanday ta’sir ko‘rsatish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.</p> <p>Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik, investitsiyalar, davlat islohotlari, infratuzilma, turistik yo‘nalishlar, ish o‘rinlari, O‘zbekiston.</p>	<p style="text-align: center;">G.Shadiyeva, B.Davronova</p> <p style="text-align: center;">Tourism in Uzbekistan: a driver of economic growth and social stability</p> <p>Abstract. This article examines the development of the tourism industry in the Republic of Uzbekistan and its impact on social and economic growth. Tourism in Uzbekistan significantly contributes to the country's sustainable development and the diversification of its economy. The study discusses the social and economic importance of tourism, the reforms implemented by the government, and the positive effects of new infrastructure projects on the tourism sector. It also presents information on government programs, investments, and the creation of new tourism destinations. The article highlights how the development of tourism contributes to the country's overall economic growth, job creation, and improvement of the living standards of the population.</p> <p>Keywords: tourism, economic development, social stability, investments, government reforms, infrastructure, tourism destinations, job creation, Uzbekistan.</p>
--	---

Maksuda Valeriyevna Israilova – Farg‘ona davlat universiteti, “Jahon va mintaqa iqtisodiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi

SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMNING MOHIYATI VA RIVOJLANISH TARIXI

<p>Annotatsiya. Maqolada sog‘lomlashtirish turizmining rivojlanish tarixi davomida uning mohiyati evolyutsiyasi ko‘rib chiqilgan. Ayni paytda insonning jismoniy, ruhiy va mental salomatligi bilan bog‘liq turizmning mavjud shakllari qiyosiy tahlil qilingan.</p> <p>Kalit so‘zlar: salomatlik, tibbiy turizm, sog‘lomlashtirish turizmi, sanatoriy-kurort faoliyati, tabiiy shifobaxsh omillar.</p>

Kirish. Zamonaviy hayot sur‘atining tezlashishi, stress omillarining ko‘payishi va ekolo-

gik vaziyatning yomonlashuvi sharoitida sog‘lomlashtiruvchi turizm tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning ushbu turi tabiiy omillar, zamonaviy tibbiy texnologiyalar, an’anaviy va noan’anaviy sog‘lomlashtirish usullariga asoslangan turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Tarixiy jihatdan sog‘lomlashtirish turizmi qadimda shifobaxsh buloqlarga ziyorat sifatida paydo bo‘lgan, keyinchalik ushbu sohaning rivojlanishi shifoxonalar, kurortlar, sanatoriylar va ixtisoslashtirilgan sog‘lomlashtirish markazlarini yaratish bosqichlaridan o‘tgan. XXI asrda sog‘lomlashtirish turizmi odamlarning kasalliklarning oldini olish, stressdan keyin tiklanish, dam olish, relaksatsiya, ma’naviy qayta tiklanish va faol uzoq umr ko‘rish kabi ehtiyojlariga qarab ko‘plab turli shakllarga ega bo‘ldi.

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda sog‘lomlashtirish turizmining ahamiyati, uning tarixiy rivojlanishi, asosiy tendensiyalar va aholi turmush tarzi va ehtiyojlaridagi global o‘zgarishlar kontekstida istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sog‘lomlashtirish turizmining evolyutsiyasi va uning mohiyati vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida sog‘lomlashtirish turizmining mohiyatini talqin qilish va ta’riflashga turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular lingvistik, madaniy va tarixiy omillarga bog‘liq.

Sog‘lomlashtirish turizmi mohiyatini talqin qilishdagi o‘xshashliklarni MDH mamlakatlari tadqiqotchilari - A. M. Vetitnev, Ya. A. Voynova [1], Barchukov I.S. [2], Oborin M.S. [3], Kamalova A.[4] ishlarida qayd etish mumkin. Xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida "sog‘lomlashtirish turizmi" atamasining talqiniga yondashuv sezilarli darajada farq qiladi. Shveysariyalik iqtisodchi olimlar H.Myuller va L.Kaufmanlar [5] sog‘lomlashtirish turizmining mohiyatini kengaytirilgan wellness modeli orqali ochib berishgan. Skandinaviya mamlakatlari tadqiqotchilari J.Pesonen va R.Komppular [6] o‘z ishlarida sog‘lomlashtirish turizmining mohiyatini "well-being" turizm konsepsiyasi orqali ochib beradilar. Buyuk Britaniyalik tadqiqotchilar M.K. Smith va L. Puczko‘lar [7] sog‘lomlashtirish turizmini ikki asosiy shaklga ajratadilar: terapiya va jarrohlik aralashuvlari uchun sayohatlarni o‘z ichiga olgan "hard-core" turizm , hamda spa , xolistik va relaksatsion muolajalarini o‘z ichiga olgan "soft-core" turizm .

O‘zbekistonda tibbiyot va sog‘lomlashtirish turizmini o‘rganish va rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Mamlakatimiz tadqiqotchilari I.Tuxliyev, G.X.Qudratov, Z.Usmonova, M.Q.Pardayev, A.T.Mirzayevlar [8] o‘z ishlarida davolash-sog‘lomlashtirish turizmi uchun "rekreatsion turizm" atamasini qo‘llaydilar va uni tabiiy milliy rekreatsion majmualardan oqilona foydalanish tizimi sifatida qaraydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida xorijiy va mahalliy iqtisodchilarning davolash-sog‘lomlashtirish turizmiga bag‘ishlangan ilmiy asarlari o‘rganib chiqildi. Mavzuni o‘rganishda qiyosiy adabiy tahlil, mantiqiy va konseptual tahlil hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Sog‘lomlashtirish turizmi sayohatlarning eng qadimgi turlaridan biri bo‘lib, uning dastlab rivojlanishi din bilan uzviy bog‘liq edi. Qadimgi sivilizatsiyalarning ko‘pchiligi mineral termal buloqlarning shifobaxsh xususiyatlarini ilohiy hisoblab , ularni muqaddas ibodatxonalariga aylantirganlar. Birinchi sog‘lomlashtirish majmualari eramizdan avvalgi 4 ming yillikda shumerlar tomonidan tashkil etilgan deb hisoblanadi.

Tibbiyot ziyorati Qadimgi Yunonistonda keng rivojlangan bo‘lib, u yerda tibbiyot xudosi Asklepiy sharafiga ko‘plab shifobaxsh ibodatxonalar - asklepionlar qurilgan, ulardan eng mashhuri Kos, Knid va Epidavr ibodatxonalaridir. Asklepionlar nafaqat diniy inshootlar, balki shifoxonalarni ham o‘z ichiga olgan va ularga shifo so‘rab ibodat qiladigan ko‘plab ziyoratchilar kelgan. Asklepiy ruhoniylari - asclepiadlar bemorlarni davolash, diniy marosimlarni bajarish va kasallik kechishi hamda davolash choralari yozilgan jadvallar tuzish bilan shug‘ullangan. Shunday qilib, asklepionlar tibbiy bilimlarning yig‘ilib borishiga va tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar.

Yevropada sog‘lomlashtirish turizmining paydo bo‘lishini bronza davriga bog‘lash mumkin. Bu davrda hozirgi Shveysariyaning Sent-Morits hududida joylashgan shifobaxsh buloqqa ziyorat qilish haqida ilk bor ma’lumot berilgan. O‘rta asrlarda ushbu buloq yonida cherkov qurilgan bo‘lib, unga tashrif buyurish barcha gunohlarning kechirilishini ta’minlagan.

1535-yilda shveysariyalik shifokor-alximik Paratsels Sen-Morits mineral suvini dunyodagi eng yaxshisi deb eʼtirof etib, uning podagra, revmatizm va buyrak kasalliklarini davolashdagi samaradorligini taʼkidlagan.[9] Uygʻonish davrida sogʻlomlashtirish turizmi rivojlanishda davom etdi. Yevropada "SPA" (lat. salus per aquam - "suv orqali salomatlik") atamasi paydo boʻldi va birinchi kurort "Ville d'Eaux" ("Suv shahri") zamonaviy Belgiyada tashkil etilgan. XVIII-XIX asrlarda tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmi tez surʼatlar bilan rivojlanib, ziyoratchilikdan butunlay ajralib chiqdi va tijorat sohasiga aylandi. Bu davrda Cote d'Azur, Baden-Baden, Deauville, Karlovy Vary, Axen va boshqa mashhur kurortlar paydo boʻldi.

Osiyoda tibbiy- sogʻlomlashtirish turizmining rivojlanishi, birinchi navbatda, karvon yoʻllari va shifoxonalarda sayohatchilarga klinik xizmat koʻrsatish, shuningdek, xalq tabobati usullarini qoʻllashga yoʻnaltirilganligi bilan bogʻliq.

Koʻplab dastlabki islom madaniyatlarida chet ellik sayyohlar foydalanishi mumkin boʻlgan sogʻliqni saqlash tizimlari yaratilgan edi. Jumladan, 1248-yilda Qohirada oʻsha davrning eng ilgʻor shifoxonasi - 8000 kishini sigʻdira oladigan Mansuri kasalxonasi barpo etilgan boʻlib, u irqi va dinidan qatʼi nazar, chet elliklarni ham tibbiy xizmat bilan taʼminlaydigan maskanga aylangan.[10]

Oʻzbekiston hududida tibbiyot fani oʻrta X-XII asrlarda shakllangan boʻlsa-da, sogʻlomlashtirish turizmi XIX asrdan boshlab alohida yoʻnalish sifatida rivojlandi. Oʻrta Osiyo hududida topilgan mineral suvlar XIX asrning 70-80-yillarida rossiyalik kimyogar olimi N.B.Teyx tomonidan oʻrganilib, ilmiy adabiyotlarda tavsiflangan. Uning mintaqamizda sanatoriy-kurort faoliyatining rivojlanishiga qoʻshgan hissi juda katta ahamiyatga ega. Oʻrta Osiyoning davolash mineral buloqlari va shifobaxsh balchiqlarining birinchi xaritasi esa 1912-yilda rus geologi V. Veber tomonidan tuzilgan [11].

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda Pedov, Arashon buloq, Oloy, Bolgʻali, Garm, Chashma, Qotirbuloq, Zarkent, Qaynarbuloq, Oʻzchaqsoyning shifobaxsh buloqlari aniqlandi. Oʻzbekiston hududidagi birinchi balneologik kurort 1881-yilda rossiyalik shifokori I. Bunin tomonidan Qoʻqon uyezdining Pedov tumanida tashkil etilgan. Keyinchalik, mineral suv va balchiq buloqlari negizida ochilgan bu va boshqa shifoxonalar harbiy sanitariya-gigiyena stansiyalariga aylantirildi va 1917-yilgacha faoliyat koʻrsatdi.[12]

Oʻzbekiston Sovet ittifoqi tarkibiga kirgan davrda sanatoriy-kurort faoliyati jadal rivojlandi. 1919-yilda "Umumdavlat ahamiyatiga molik shifo maskanlari toʻgʻrisida"gi dekret imzolanganidan soʻng barcha kurortlar, suv va balchiq bilan davolovchi balneologik shifo maskanlari milliyashtirildi va "Oʻrta Osiyo kurort boshqarmasi"ga birlashtirildi. Sovet hokimiyati konsepsiyasida kurort va sanatoriylar "mehnatkashlar salomatligini taʼmirlash ustaxonasi"ga aylandi. Kurort boshqarmasi tomonidan Semashko nomidagi Fizioterapiya va sanatoriy-kurort davolash instituti professorlari va yetakchi mutaxassislari ishtirokida shifobaxsh buloqlarni oʻrganish boʻyicha qator ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ushbu tadqiqotlar asosida 1924-yildan boshlab mintaqada koʻplab kurort tipidagi muassasalar: Fargʻona vodiysidagi "Chimyon" va "Jalolobod" kurortlari, Kaspiyorti mintaqasidagi temir yoʻlchilar uchun "Mulla Qora" balchiq shifoxonasi, Yettisuv tumanidagi "Issiqota," "Yetti Oʻgʻuz" va "Oq Suv" balneologik kurortlari ochildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin sanatoriylar va dam olish maskanlarining aksariyati kasaba uyushmalari va tarmoqlar tasarrufiga oʻtkazildi.

Sovet Ittifoqida ichki sanatoriy-kurort faoliyatining eng yuqori rivojlanish davri 1960-1980-yillarga toʻgʻri keldi. 1980-yilda 23,2 million kishi sanatoriy-kurortlarda davolangan boʻlsa, dam olish maqsadida sayohat qilgan sayyohlar soni 11,3 million kishini tashkil etdi. Bu esa aholi orasida sogʻlomlashtirish turizmi ustunlik qilganligini koʻrsatadi. Bunga uch omil sabab boʻldi. Birinchidan, korxonalar xodimlarga imtiyozli yoʻllanmalar berib, ularning qiymatini ijtimoiy jamgʻarma hisobidan qoplagan, ayrim toifadagi fuqarolar uchun esa yoʻllanmalar bepul boʻlgan. Ikkinchidan, chet elga chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi ichki turizmning rivojlanishiga turtki boʻlgan, davolanish va dam olishni birlashtirgan sanatoriy va kurortlar esa eng koʻp ommalashgan. Uchinchidan, Sovet Ittifoqining sogʻliqni saqlash tizimi sanoat bilan chambarchas bogʻliq edi: yirik korxonalar, vazirliklar va kasaba uyushmalari tasarrufida kasb kasalliklarining oldini olish va davolashga ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari va sanatoriylar faoliyat yuritgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng sanatoriy-kurort sohasi sezilarli o‘zgardi va hozirgi vaqtda respublika tibbiy turizm kompleksining tizimli elementi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu xizmat turini ko‘rsatuvchi tashkilotlar soni ko‘paydi, sanatoriy va kurortlarning mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllari doirasi kengaydi, xizmat ko‘rsatishning konseptual yondashuvi o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan sanatoriy-kurort muassasalari soni 242 tani, o‘rin fondi 27.6 mingtani tashkil etgan. Davolash-sog‘lomlashtirish turizmining davlat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushi 2022-yilda 507,5 mlrd. so‘mni yoki 5,67% ni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 0,92% ga, 2020-yilga nisbatan esa 3,52% ga oshgan.¹

Davolash-sog‘lomlashtirish turizmi mohiyati haqidagi munozara tadqiqotchilar tomonidan o‘nlab yillar davomida olib borilganiga qaramay, bugungi kunda ham dolzarbdir. Bu turli mamlakatlarda turizmning ushbu shaklini idrok etishdagi farqlar, davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi, milliy mentaliteti, geografik joylashuvi, shuningdek, rekreatsion hududlarda taqdim etilgan davolash resurslarining farqlari bilan bog‘liq.

Sovet ittifoqida sanator-kurort sohasi "poliklinika - statsionar - sanatoriy" tizimining bir qismi bo‘lib, kasalliklarning oldini olish, reabilitatsiya qilish va davolash bo‘yicha muhim umummilliy funksiyalarni bajargan milliy madaniyat elementi hisoblangan. Shuning uchun sobiq sovet ittifoqiga kirgan mamlakatlar tadqiqotchilarining (A. M. Vetitnev, Ya. A. Voynova, Barchukov I.S., Oborin M.S., Kamalova A.) tajribasini o‘rganishda sog‘lamlashtirish turizm tushunchasining salomatlikning biotibbiy modeli va "tashxisga yo‘naltirilgan" sog‘liqni saqlash tizimiga asoslangan o‘xshash talqinlarni kuzatish mumkin. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar I.Tuxliyev, G.X. Qudratov [13], Z.Usmonova [14] o‘z asarlarida davolash-sog‘lomlashtirish turizmiga nisbatan "rekreatsion turizm" atamasini qo‘llaydilar va yashash joyidan tashqarida, masalan, tabiatga, sanatoriylarga, kurortlarga turistik sayohatlarda dam olish orqali salomatlik va mehnat kuchini tiklashga qaratilgan deb talqin qiladilar. Tadqiqotchilar M.Q.Pardayev, A.T. Mirzayev[15] sog‘lomlashtirish turizmini aholining individual va ijtimoiy salomatligi uchun tabiiy va rekreatsion resurslar hamda milliy rekreatsion majmualardan oqilona foydalanishga qaratilgan "rekreatsion tizim" deb hisoblaydilar.

Xorijiy mamlakatlarda sog‘lomlashtirish turizmi tushunchasi "spa," "wellness tourism," "wellbeing tourism" kabi atamalar bilan bog‘liq. Ushbu terminlarning har biri sog‘lomlashtirish turizmini aniqlash uchun ishlatiladi, ammo ular bir-biridan ba‘zi farqlarga ega. Davolash-sog‘lomlashtirish turizmi mohiyatini talqin qilishdagi bunday xilma-xil yondashuvlarni ko‘p jihatdan dunyo mamlakatlarining lingvistik va madaniy xususiyatlari bilan izohlash mumkin. G‘arb va Osiyo mamlakatlari olimlarining talqinlarida "bemorga yo‘naltirilgan" sog‘liqni saqlash tizimiga xos bo‘lgan va ma‘naviy va ijtimoiy komponentlarni hisobga olgan holda "biopsixosotsial" salomatlik modeli asos qilib olingan.

1-jadval

Sog‘lomlashtirish turizm turlarining mazmun-mohiyati²

Mezonlar	Tibbiyot turizmi	Sanator-kurort faoliyati	SPA	Wellness	Wellbeing
Sayohat davomiyligi (kun)	7-20	14-21	1-7	1-7	1-14
Sayohat maqsadi	Davolash, tibbiy aralashuvlar orqali salomatlikni tiklash	Sanatoriy-kurort muassasalari sharoitida reabilitatsiya, sog‘lomlashtirish, kasalliklar profilaktikasi	Jismoniy va ruhiy holatni yaxshilash, relaksatsiya, tanani parvarish qilish	Organizmning umumiy holatini yaxshilash, stressni kamaytirish, kayfiyatni yaxshilash.	Ruhan tiklash, sog‘lom turmush tarziga o‘rganish

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga asosan

² Muallif tomonidan shakllangan.

Qo'llaniladigan davolash omillari	Jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish, organlarni ko'chirib o'tkazish, murakkab kasalliklarni davolashning tibbiy texnologiyalari	Tabiiy davolovchi resurslar (iqlim, shifobaxsh suvlar, balchiq), fizioterapiya, parhez	Ayurveda amaliyoti, aromaterapiya, yoga, massaj, termal va mineral suvlar, fitnes	Meditatsiya, psixologik bo'shashtirish usullari, yoga, dayving, syorfung	Turmush tarzini o'zgartirish (qishloq turizmi), poxodlar, parhez, detoks
Sayohat sababi	Sayohatchining doimiy yashash joyida mavjud bo'lmagan tibbiy muolajani olish, mablag' va vaqtni tejash	Tabiiy davolash resurslari yordamida tibbiy aralashuvlarsiz rehabilitatsiya qilish yoki kasalliklarning oldini olish zarurati	Dam olish, sog'liq va tanago'zalligini saqlash istagi, yuqori darajadagi rohat va xizmatdan foydalanish	Turli stressli vaziyatlarni va ekologiyaning salbiy ta'sirini yengib o'tish	Yashash tarzini o'zgartirish, foydali odatlarni singdirish, zararli odatlardan voz kechish istagi.
Sayohat joyi	Arzon yoki rivojlangan tibbiyotga ega mamlakatlardagi tibbiyot markazlari	Tabiiy davolash resurslari manbalari yaqinida joylashgan sanatoriylar, kurortlar, sanatoriy-profilaktoriylar	SPA-otellar, SPA-klublar SPA-markazlar	Wellness-otellar, tabiiy rekreatsion zonalar (to'g'li hududlar, o'rmonlar)	Wellbeing-zonalar, (qishloq hududlar, olis va yopiq hududlar qadimgi ma'naviy kuchlar hududlari.

Turizm bozorida wellness va wellbeing konsepsiyalari kurort turizmini davolash turizmining an'anaviy doirasidan chiqardi va "gospital xizmat" ko'rsatishning ifodalangan falsafasini o'zgartirib, wellness hamda wellbeing elementlarini taklif etilayotgan xizmatlar paketining muhim qismiga aylantirdi. Ko'plab mashxur kurortlar o'z faoliyatini klassik kurort mazmunidan dam olish va wellness mazmuniga yo'naltirildi. [16]

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, davolash-sog'lomlashtirish turizmining rivojlanish jarayonida uning shakllari davolash-ziyosat turizmidan davolash-profilaktika va undan keyin wellness va wellbeing turizmga o'zgarib borgan. O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi tibbiy turizmning ajralmas qismi bo'lgan sanatoriy-kurort faoliyati asosida shakllanmoqda va rehabilitatsiya-profilaktika yoki davolash-rekreatsion yondashuvga tayanadi. Sanatoriy-kurort ishi faqat daliliy tibbiyotga asoslanadi, oliy va o'rta tibbiy-farmatsevtik ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Sanatoriy va rehabilitatsiya sihatgohlarida rehabilitatsiya va davolash muolajalarini amalga oshirish uchun sanatoriy-kurortda davolanish tartibi, standartlari va klinik tavsiyalari asosida amalga oshiriladi.

XXI asrda insonlarning salomatlik, hayot sifati va davomiyligini oshirishga intilishi tibbiyotning jadal rivojlanishiga va sog'lomlashtirish turizmining rivojlanishiga turtki beradi. Hozirgi bosqichda u insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va mental holatini ham hisobga oladigan salomatlikning "biopsixosotsial" modeliga e'tibor qaratmoqda. Ushbu takomillashuv sog'lomlashtirish turizmi sohasida xizmat ko'rsatish tushunchasini tibbiy yondashuvdan mijozga yo'naltirilgan yondashuvga, "davolash-rehabilitatsiya" paradigmasidan "profilaktika-sog'lom turmush tarzi" paradigmasiga o'zgarishiga olib keldi. Zamonaviy bosqichda ushbu yondashuv xizmat ko'rsatish vositalariga wellness va wellbeing yo'nalishlarga hos davolovchi omillarni kiritish, yangi xizmat ko'rsatish dasturlarini ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, "farovonlik turizmi"ga mos keladigan yangi texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Shunday qilib, nafaqat kasal odamlarning, balki amaliy jihatdan sog'lom, iqtisodiy faol aholining ham ehtiyojlari hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ветитнев А. М., Войнова Я. А. Организация санаторно-курортной деятельности : учебное пособие . — М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — 272 с.
2. Барчуков И.С. Санаторно-курортное дело: Учебное пособие для студентов ВУЗов – М.: ЮНИТИ-ДАНА.2017.-303с.
3. Oborin, M. S. (2022). Special types of tourism: medical tourism. Zenodo. <https://doi.org/10.24412/1995-042x-2022-1-179-187>
4. А.Камалова. Медицинский Туризм в Кыргызской Республике: Возможности и Перспективы. “International conference on eurasian economies “ 2020 . 2-4 September 2020 – Baku
5. E. Lanz-Kaufmann, H. Muller Wellness Tourism: Market analysis of a special health tourism segment and implications for the hotel industry J. Vacat. Mark., 7 (2001), pp. 5-17
6. Pesonen, J., & Komppula, R. (2010). Rural Wellbeing Tourism: Motivations and expectations. Journal of Hospitality and Tourism Management, 17(1), 150–157. <https://doi.org/10.1375/jhtm.17.1.150>
7. M.K. Smith и L. Puczkó Butterworth Heinemann Health and Wellness Tourism, Oxford, Inggris (2009)
8. Пардаев М.К.. Теоретико-методологические подходы к разработке определений рекреационных зон и экологического туризма. Материалы конференции. 2014 г., Самарканд
9. Мозокина С.Л., Исторические аспекты развития лечебно-оздоровительного и медицинского туризма // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2021. – № 6. – с. 79–84.
10. Мозокина С.Л. "Тенденции развития лечебно-оздоровительного и медицинского туризма" Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета, № 5, 2014, с. 42-46.
11. Султанмуратов, М. Т. История развития и становления санаторно-курортной и реабилитационной служб в Кыргызской республике / Здоровоохранение Кыргызстана. – 2017. – № 3.
12. Axmedova R.M. O‘zbekistonda dastlabki yevropacha turdagi shifo maskanlarining faoliyati / Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi 2021(2)- 36-41с.
13. I.Tuxliyev, G‘.X Qudratov, M.Q Pardayev “Turizmni rejalashtirish” darslik “Iqtisodmoliya” (2010) Toshkent.
14. Usmanova Z.I. O‘zbekistonda turistik – rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –SamISI, 2018
15. Mirzayev A. T. O‘zbekistonda turistik-rekreasiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. FarPI– 2021
16. Goodrich, J. N., & Goodrich, G. E. (1987). Health-care tourism — an exploratory study. Tourism Management, 8(3), 217–222. doi:10.1016/0261-5177(87)90053-7

<p>М.Исраилова</p> <p>Сущность и история развития оздоровительного туризма</p> <p>Аннотация. В статье рассматривается история развития оздоровительного туризма и эволюция его сущности на протяжении всех этапов, проведен сравнительный анализ существующих форм туризма, связанных с физическим, психическим и ментальным здоровьем человека</p> <p>Ключевые слова: здоровье, медицинский туризм, оздоровительный туризм, санаторно-курортная деятельность, природные лечебные факторы.</p>	<p>М.Israilova</p> <p>The essence and history of development of health tourism</p> <p>Abstract. The article examines the history of the development of health tourism and the evolution of its essence at all stages of human existence. Currently, a comparative analysis of existing forms of tourism related to a person's physical, mental, and emotional health has been conducted</p> <p>Keywords: health, medical tourism, health tourism, sanatorium and resort activities, natural healing factors.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.